
Ehtiyojmand oilalarga bayram tadbiri tashkil etildi

Qo'shtepa tumanida kirib kelayotgan yangi yil bayrami oldidan ko'plab xayrli ishlar, yo'qlovlar bo'lib o'tmoqda.

Jumladan, ana shunday tadbirlardan biri tuman Madaniyat markazida bo'lib o'tdi.

Tuman Oila va xotin-qizlar bo'limi hamda "Sog'lom avlod uchun jamg'armasi" viloyat bo'limi bilan hamkorlikda tumandagi 30 ta ehtiyojmand oilalarga bayram tadbiri tashkil etildi.

Dastlab tadbir ishtirokchilari tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, ularga zarur dori -darmonlar va biologik qo'shimchalar berildi.

Shundan so'ng ishtirokchilarga sog'lom turmush tarzini yuritish, sog'lom ovqatlanish masalalarida trening o'tkazildi.

Eng quvonarlisi tadbir ishtirokchilariga qorbobo sovg'a ulashganda bo'ldi. Chiroyli taqdim etilgan bayram dasturxonini uchun oziq-ovqat mahsulotlari, bolalarga o'yinchoqlar va shirinliklar barchani xursand qildi.

Tumanimizda bu kabi saxovat tadbirlari davom etmoqda.

2024-12-24 16:15:35